

ALISHER NAVOIYNING IJODINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Mamatqulova Binafsha Olimjon qizi
Surxandaryo viloyati
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda yoshlar qalbida milliyg'urur, o'zlikni anglash, go'zallik va nafosatga shaydolik tuyg'ularini kamol toptirishda Navoiy asarlari muhim manba bo'la oladi. Zero, ulug' san'atkor asarlari mohiyatiga singdirilgan insonparvarlik, xalqparvarlik, adolat, haqiqat, imon e'tiqod yetukligi, shukronalik, sabr-qanoat, kelajakka umidvorlik singari g'oyalar barcha davrlarda ham insoniyat ma'naviy kamoloti uchun muhimdir.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, asar, she'riyat, taskira, shoir, g'azal, Sharafiddin Ali Yazdiy, nasriy asarlar.

Аннотация: Сегодня произведения Навои могут стать важным источником повышения чувства национальной гордости, самосознания, красоты и утонченности в сердцах молодых людей. Ведь такие идеи, как человечность, патриотизм, справедливость, правда, зрелость веры, благодарность, терпение, надежда на будущее, заложенные в суть произведений великого художника, важны для духовного совершенствования человечества во все эпохи.

Ключевые слова: Алишер Навои, Хусейн Бойкара, произведение, поэзия, интерпретация, поэт, газель, Шарафуддин Али Язди, прозаические произведения.

Annotation: Today, Navoi's works can be an important source for improving the feelings of national pride, self-awareness, beauty and sophistication in the hearts of young people. After all, ideas such as humanity, patriotism, justice, truth, maturity of faith, gratitude, patience, and hope for the future, embedded in the essence of the great artist's works, are important for the spiritual perfection of humanity in all eras.

Key words: Alisher Navoi, Husayn Boykara, work, poetry, interpretation, poet, ghazal, Sharafuddin Ali Yazdi, prose works.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o'gli Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotda tug'ildi. Zamondoshlari uning haqida ko'pincha „Nizomiddin Mir Alisher“ deb yozadilar. Nizomiddin — din-diyonat nizomi degani bo'lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, „mir“ amir demakdir. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad (uni

G'iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo'lgan, ismi ma'lum emas. Alisherning bobosi Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh (ko'kaldosh) bo'lgan.

Buyuk shoir o'z asarlarida bu qutlug' dargohga yaqinligidan iftixor etishini bayon qiladi. Shuningdek, uning tarjimai holiga oid ayrim lavhalar asarlarida uchraydi. Bu shaxs to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni esa uning zamondoshlari o'z kitoblarida tilga oladilar.

Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sgan. Kichiklik chog'idan she'r va musiqaga ishq tushgan. Olim-u fozillar davrasida bo'lgan. Uch-to'rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvorning bir she'rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soladi. Bir yildan so'ng uni maktabga beradilar. U bo'lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o'qiydi. Uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar esa el orasida tarqaladi.

1447-yilda Shohruh Mirzo vafot etib, temuriy shahzodalar o'rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Hirot notinch bo'lib qoladi. Alisherning oilasi Iroqqa yo'l oladi. Yo'lda, Taft shahrida Alisher zamonasining mashhur tarixchisi, „Zafarnoma“ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi.

Alisher xonadoni 1451-yilda Hirotga qaytadi. Tarixchi Xondamir bu bilan bog'liq shunday bir hikoyani keltiradi:

Karvon Yazd cho'li bilan Hirotga borarkan, tungi yurishlardan birida ot-ulov ustida hammani uyqu bosadi. Alisher mingan ot, ittifoqo, yo'ldan chiqib, bo'lajak shoir egardan tushib qoladi, uyqu zo'rlik qilib, uyg'onmaydi. Horigan ot ham egasi yonidan ketmay, to'xtab qoladi. Alisher tong otib, quyosh qiziganda uyg'onadi. Qarasa, poyonsiz sahro, atrofida hech kim yo'q. Yolg'iz otigina yovshan ildizlarini chimtib turibdi. O'n yoshli bola o'zini qo'lga oladi. Otini minib, zehn bilan yo'lni topib ilgari yuradi. Kun qizib, chanqoqlik boshlanadi. Shu payt uzoqdan bir narsa qorayib ko'rinadi. U suv to'la mesh ekan, Allohga shukronalar aytib, Alisher yo'lini davom ettiradi. Uning ota-onasi manzilga yetgach, o'g'illarining yo'qligini biladilar va mulozimni shoshilinch orqaga qaytaradilar. Mulozim ko'p yurmay, Alisherga duch keladi. Alisherni, go'yo u qayta tug'ilganday, quvonch bilan kutib oladilar.

1452-yilda Abulqosim Bobur Xuroson taxtiga o'tiradi, notinchliklar bosiladi. G'iyosiddin Muhammad Sabzavorga hokim qilib tayinlanadi. Alisher esa o'qishini davom ettiradi. Maktab yosh Alisherni she'riyat, adabiyot olamiga olib kirgan. Bo'lajak shoir Sa'diy Sheroziyning „Guliston“ va „Bo'ston“, asarlarini, Fariddin Attorning „Mantiq ut-tayr“ („Qush mantig'i“) asarini so'ngsiz ishtiyoq bilan o'qiydi. Ayniqsa, qushlar tilidan keltirilgan hikoyatlar va ularning chuqur mazmuni Alisherning o'y-xayolini tamom egallab oldi:

Bir kuni qushlar jam bo'libdi. Har xil: to'ti, qumri, tovus, bulbul va hokazo. O'rta hudhud (sassiqpopishak) chiqibdi. Boshidagi tojini selkillatib, o'zini ta'rif-u tavsif etibdi.

So‘ng u hammani olam podshosi Semurg‘ni izlashga undabdi. Qushlar uni surishtira boshlabdilar. „Zotini, naslini, sifatini ayt, bizga nishon ber!“ — deyishibdi ular. Hudhud hikoya boshlabdi: Semurg‘ bir kecha dunyoni aylanib, uchib yurar edi. Nogoh yo‘li Chin shahri ustidan tushdi. Bir silkingan edi, mamlakat nurga g‘arq bo‘ldi. Patidan biri tushib qolgan ekan. Ogoh bo‘lganlar bundan aql-u shuurini yo‘qotdilar. Chin mulki esa hashamat (ulug‘vorlikka) chulg‘andi.

Qushlar zavq-u shavq bilan yo‘lga tushadilar. Biroq bu zavq-shavq uzoq davom etmaydi. Qushlar e’tiroz bildirib, uzr aytib, o‘zlarini chetga ola boshlaydi. Hudhud har biriga javob aytadi. Semurg‘ga yetishish baxti oldida bu dunyoning tashvishlari hechligini isbot etuvchi biror hikoya keltiradi. Hudhudning gaplari, hikoyalari qushlarga yangi bir kuch bag‘ishlaydi. Ular hudhudni boshliq qilib, yo‘lga tushadilar. Hudhud bu yo‘lning ishq yo‘li ekanligi, unga kirgan odam Shayx San‘on singari o‘zligidan kechishi lozimligini aytadi. Yana bir-biridan jozibali hikoyalar: Nihoyat, qushlar yetti vodiyni bosib o‘tadilar va o‘zlarining Semurg‘ ekanligini anglab yetadilar.

„Mantiq ut-tayr“ hayoli Alisherga bir umr hamroh bo‘ldi. Umrining so‘ngida esa „Lison ut-tayr“ („Qush tili“) nomi bilan kitob yozdi. Bo‘lajak shoir yana Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy asarlarini ham sevib o‘qigan.

1453-yilda Alisherning otasi G‘iyosiddin Muhammad vafot etadi. Alisher Abulqosim Bobur xizmatiga kiradi. Avval Sabzavorda, so‘ng Mashhadda yashaydi. Ikki maktabdosh do‘st — Husayn va Alisher yana birga bo‘ladilar. Bir munosabat bilan u 50 ming bayt, 100 ming misra she‘r yod olganini aytadi. She‘r shunchaki nutq o‘stirish emas, ma‘rifat, taffakur mashqi ham edi. Navoiy 15 yoshlarida o‘z she‘rlari bilan zamonasining mashhur shoirlari diqqatini tortgan. Xondamirning yozishicha, she‘rlari bilan endigina tanilib kela boshlagan Alisher o‘z davrining dongdor shoiri Mavlono Lutfiy xizmatiga boradi. Mavlono undan she‘r o‘qishni iltimos qiladi. Alisher o‘zining:

Orazin yopg‘och, ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh.

matla‘i bilan boshlanadigan g‘azalini o‘qiydi. She‘rdan hayratga tushgan keksha shoir bunday deydi: „Valloh, agar muyassar bo‘lsa edi, o‘zumning forsiy va turkiy tillarda aytgan o‘n-o‘n ikki ming baytimni shu g‘azalga almashtirardim va buni o‘zimning katta yutug‘im deb hisoblar edim“. Bu turkiy (o‘zbek) she‘riyatiga juda katta iste‘dod kirib kelayotganidan nishona edi.

1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etdi. Hokimyat tepasiga Abusaid Mirzo keldi. Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga sho‘ng‘ib ketdi.

Navoiy esa Mashhad madrasalarida o‘qishni davom ettirdi. Do‘stlar orttirdi. Keksha shoir Kamol Turbatiyni shu yerda uchratdi. Turbatlik bu shoir Alisher bilan bir bayt muhokamasi ustida tanishib qoldi. Shoir 1464-yilda Hirotga qaytadi. Biroq poytaxtda uni noxushliklar kutadi. Abusaid Mirzo u bilan taxt talashayotgan Husayn Bayqaroni yaqin kishilarini ta‘qib va tayziq ostiga olgan, jumladan, tog‘alari Mirsaid Kobuliy va

Muhammad Ali Gʻaribiylarni oldinma-keyin qatl ettirgan edi. Ular isteʼdodli shoirlar edi. Alisherning ota mulki musodara qilingan, hatto yashab turgan boshpanasi ham qolmagandi. U shaharda uzoq qola olmadi. Holbuki, yosh shoirning ijodi barq urgan payti edi. Abdurahmon Jomiydek zamonasining alloma adibi bilan yaqindan tanishib, saboqlar olgani, mehr qozongan edi. Navoiy — „Mahmud Nuran“ deb eʼzozlagan bu mashhur shoir va olim oʻzini siyosatdan uzoq tutar, hatto shahar tashqarisidagi Saʼdiddin Koshgʻariy (1456-yilda vafot etgan mashhur shayx, Jomiyning ustози) mozori yonidan joy qilib, oʻsha yerda yashar edi.

Navoiyning Sayyid Hasan Ardasherga yozgan sheʼriy maktubi bor. U „Masnaviy“ nomi bilan „Xazoyin ul-maoniy“ning birinchi devoniga kiritilgan. Mutaxassislar uni Navoiyning Hirotdan Samarqandga joʻnash oldidan yozgan maktubi deb hisoblaydilar. Chamasi, shoir safar oldida Ardasher bilan xayrlashmoqchi boʻlgan, lekin uni topmagan. Soʻng ushbu maktubni yozib qoldirgan. Maktub Alisherning safar oldidagi kechinmalari va oʻz otasidek yaqin koʻrgan Sayyid Hasan Ardasherining sifatlarini taʼrif etish bilan boshlanadi. Vatan va doʻstlarni tashlab ketish ogʻir. Xayrlashmay ketish undan ham ogʻir. U ulugʻ doʻstiga ketishi sabablarini tushuntirmoqchi. Xat shu munosabat bilan yozilgan. Inson soʻz bilan ulugʻdir, „falak jismining joni“ — soʻz, ayqisa „nazm“ (sheʼr), deydi shoir. Va oʻzida sheʼr yozishga juda katta kuch-qudrat sezayotganini aytadi. Shunday qudratki, agar Firdavsiy oʻz „Shohnoma“sini 30 yilda yozgan boʻlsa, u oʻshanday asarni 30 oyda yoza oladi. Nizomiy Ganjaviyning 30 yil sarflab maydonga keltirgan „Xamsa“si uning oldida 2-3 yillik ishdir. Faqat unga imkon kerak. Yurt esa notinch, odamlarda vafo yoʻq. Insoniylik qolmagan, zulm avjida. Hatto tasalli beruvchi kishi ham yoʻq. Ketaman, desang etagingdan tutadigan umr yoʻldoshing, ketsang, ayriliqdan eziladigan doʻsting boʻlmasa.

Navoiy 60-yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashadi. Uning bu shaharga kelishi sababini turlicha talqin qiladilar. Xondamir, oʻqish uchun keldi, deydi. Toʻgʻri u Samarqandda din huquqshunosi va faylasuf Fazulloh Abullays qoʻlida oʻqidi. Zahiriddin Muhammad Bobur uni „Abusaid surgun qildi“, deydi. Bunda ham asos bor. Abusaidning Alisherga munosabati yomon edi. Shoir Samarqandda dastlab moddiy qiyinchilik ichida yashaydi. Keyinroq unga shahar hokimi Ahmad Hojibek ragʻbat va hoilylik koʻrsatadi. Nihoyat, Samarqand oʻz goʻzalligi bilan ham Navoiyni maftun etadi. Shoir uni „firdavsmonand“(jannatmisol) deb ataydi va unga hech qachon „gardi fano“ oʻltirmasligini — zavolikka yuz tutmasligini istaydi. Navoiy shu yillari shoir sifatida juda katta shuhrat topa bordi. 1465–1466-yillarda uning muxlislari sheʼrlarini toʻplab, „devon“ tuzadilar. Bu kitob bugun „Ilk devon“ nomi bilan mashhurdir. 1468-yil oxirida Eronni eggalash uchun boʻlgan jangda Abusaid halok boʻladi. Husayn Bayqaro 1469-yilning boshida Hirotni qoʻlga oladi va Samarqandga xat yoʻllab, Navoiyni oʻz yoniga chaqiradi. Husayn Bayqaro uni davlat ishlariga jalb etadi va muhrdor qilib tayinlaydi.

Alisher Navoiy 1469–1472-yillarda muhrdor, 1472–1476-yillarda vazir boʻlib ishlaydi. 1487–1488-yillarda Astrobodga hokimlik qildi. Husayn Bayqaro uni oʻziga

g'oyat yaqin tutar, har bir narsada u bilan maslahatlashar va buni nihoyatda qadrlar edi. To'g'ri, Bayqaro va Navoiy o'rtasiga uchinchi kishi aralashgan, sovuqchilik tushgan paytlar ham bo'ldi, lekin o'z davrining ikki atoqli arbobi hamkorligi juda ko'p sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tib, avlodlarga o'rnak bo'ldi. Husayn Bayqaro saltanatining daslabki yillarida juda notinch kechdi. Xondamirning yozishicha, u taxtga chiqqan yilning o'zida Abusaid Mirzoning o'g'li Yodgor Muhammad taxt da'vosi bilan qo'zg'aldi. Husayn Bayqaro unga qarshi qo'shin tortadi va g'alaba qozonadi.

1470-yilning bahorida Yodgor Mirzo Astrobodda yana bosh ko'taradi. Husayn Bayqaro Navoiyni yoniga olib, qo'shin bilan yana yo'lga tushadi. Xuddi shu payt Hirotga qo'zg'olon bo'lganligi xabari keladi. Husayn Bayqaro Navoiyni unga katta vakolatlar berib poytaxtga qaytaradi. Navoiy shaharda adolatni tiklab, xalqni tinchlantiradi. Shunday to'qnashuvlarning birida Yodgor Mirzoning qo'li baland kelib, poytaxtdagi ayrim kishilar unga qo'shiladilar. Mojarolarni tinchlantirish maqsadida uylangani Abusaidning qizi Robiya Sultonbegim eriga hiyonat qilib, u safariga ketganida poytaxtda inisi Yodgor Mirzo nomiga xutba o'qitadi. Yurt bir muddat Yodgor Mirzo qo'liga o'tadi. Bu hol Husayn Bayqaroga qattiq ta'sir etadi va u tushkunlikka tushadi. Navoiy shunday paytda uning yonida turadi, tassali beradi. O'sha 1470-yilning o'zida payt poylab, Navoiyning maslahati bilan Murg'ob daryosi bo'ylaridan juda qisqa muddatda Hirotga yetib keladi va Bog'i Zog'onda maishatdan charchab uxlab yotgan Yodgor Mirzoni qo'lga oladi. Shundan keyingina Xurosonda ma'lum muddat tinchlik, osoyishtalik qaror topadi. Alisher ijod kishisi edi. U tabiatan buyruqvozlikdan va hukmfarmonlikdan yiroq, tafakkur hamda taxayyulga moyil, g'oyat nozikta'b bir kishi edi. Mansab-lavozimlar har qancha yuksak bo'lmasin uning uchun zil-zambil yuk bo'lib, Husayn Bayqaroga bo'lgan ixlos va muhabbatigina uni iste'fo berishdan saqlab turar edi. Shunga qaramasdan, u sadoqat bilan xizmat qildi. Donishmadnligi, tadbirkorligi bilan ko'plab g'alayonu qon to'kishlarning oldini oldi, urushlarni yarashishga aylantirdi.

Uning bu fazilati, ayniqsa, 1472–1476-yillardagi vazirlik faoliyatida yaqqol namoyon bo'ldi. Husayn Bayqaro hokimiyat ishlarida Navoiyning aql va sadoqatiga tayanib ish ko'rdi. Uni, qarshiligiga qaramasdan, yuqori martabalarga tayinladi, 1472-yilda esa „amir“(vazir)likka qo'ydi. Buyuk shoir „amiri kabir“ (ulug' amir), „amirul muqarrab“ (podshoga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo'ldi. Uning vazirlik yillari Hirotga obodonlik avj olgan, madaniyat gullab, yashnagan davr bo'ldi. Ulug' amir o'zi bosh bo'lib, suvsiz yerlarga suv chiqardi, eski ariqlarni tozallatirdi, yangi kanallar qazdirdi. Eski binolarni ta'mir qildirib, yangilarini qurdirdi. Ko'plab madrasalar, xonahoqlar soldirdi.

Alisher Navoiy she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she'r yozishni to'xtatmadi. Atrofida uning bu ishiga rag'bat va hurmat bilan qaradilar. Shoh Husayn Bayqaroning o'zi unga rahnamolik qildi. Ulug' shoirning ilk she'riy devonini muxlislari tuzgan bo'lsalar, birinchi devoni — „Badoye ul-bidoya“ („Badiiylik ibtidosi“)ni 1472–1476-yillarda shohning amri va istagiga ko'ra o'zi kitob

qildi. 1485–1486-yillarda ikkinchi devon — „Navodir un-nihoya“ („Nihoyasiz nodirliklar“) maydonga keldi. Alisher Navoiy 1481–1482-yillarda „Vaqfiya“ asarini yozadi. Vaqf deb biror xayrli ishning sarf-u xarajatini ta'min qilmoq uchun ajratilgan yer yoki mulkka aytiladi. Alisher Navoiyning eng katta orzusi doston yozish, birinchi navbatda, XII asrning buyuk shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141–1209) dan keyin shoirlik quddarining mezoniga aylanib qolgan „Xamsa“ yaratish edi. Nizomiyning „Panj ganj“ nomi bilan tarixga kirgan „Xamsa“si 5 masnaviydan tashkil topgan edi: „Maxzan ul-asror“ („Sirlar xazinas“), „Xusrav va Shirin“, „Layli va Majnun“, „Hayf paykar“ („Yetti go'zal“), „Iskandarnoma“. Yuz yildan keyin unga Xusrav Dehlaviy (1253–1325) javob qildi. U o'z dostonlarini „Matla ul-anvor“ („Nurlar boshlanishi“), „Shirin va Xusrav“, „Majnun va Layli“, „Hasht behisht“ („Sakkiz jannat“), „Oynayi Iskandariy“ (Iskandar o'ynasi) deb ataladi. Lekin bular hammasi forsiy tilda yozildi. Ulardan forslar, shu tilni bilganlargina bahramand bo'ldilar. O'z xalqining shunday hazinadan bebahra qolishi Navoiyni qiynadi.

Navoiy maslahatga ustози Abdurahmon Jomiy huzuriga boradi. Jomiy Navoiyni bu ishga tezlikda kirishishga undaydi, uning o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini mustahkamlaydi. Navoiy besh dostonni ikki yilda tamomlaydi. 1483-yilda o'z „Xamsa“sini yoza boshlab, 1485-yilning boshida yugatadi. Shoir ishlagan kunlar hisobga olinsa, 54 ming misralik ulkan obida 6 oyda bitkaziladi. Turkiy tilda birinchi marotaba „Xamsa“ yaratiladi. Olimu fuzalo — barcha bu hodisani zo'r olqish bilan kutib oldilar. Zayniddin Vosifiyning „Badoye' ul-vaqoe'sidan: "Shoh Navoiyga: „Bir mojaro Siz bilan bizning oramizdan ko'pdan hal bo'lmay keladi, shuni bugun bir yoqlik qilaylik“, deydi. Bu mojaro shundan iborat ediki, Sulton Husayn Alisherning muridi bo'lishini ko'pdan orzu qilar va uni „pirim“ deb atar edi.

Alisher esa har gal: „Yo Ollo, yo Ollo, bu qanday gap bo'ldi! Aslida — biz muridmiz, siz — hammasiga pirsiz“, der edi. Endi Sulton Husayn Alisherdan so'radi: — Pir nima-yu, murid nima?

Alisher javob berdi:

- Pirning tilagi — muridning tilagi bo'lishi kerak.
- Shunda Sulton Husayn o'zining oq otini olib kelishni buyuradi. Ot juda asov, chopag'on edi.

Sulton Husayn aytdi:

- Siz pir, men murid bo'ladigan bo'lsam, Siz shu otga minasiz, men uni yetaklayman.

Alisher noiloj otga minishga majbur bo'ladi. Ot g'oyat asov bo'lib, shohdan boshqani o'ziga yaqinlashtirmas edi. Alisher oyog'ini uzangiga qo'yishi bilan ot tipirchilay boshladi, Sulton Husayn otiga o'shqirdi, ot itoat qilib, Alisherning minishini kutdi. Alisher egariga o'tirishi bilan Sulton Husayn otining jilovidan ushlab yetaklay boshladi. Alisher hushidan ketdi. Uni egardan ko'tarib oldilar. Tarihda bunday hol ko'rilmagan edi. Hech bir zamonda

shoh shoirga jilovdorlik qilmas edi. 1480–1490-yillar Navoiy uchun badiiy ijodda samarali davr bo‘ldi. Shoir „Xamsa“ dan keyin ko‘p o‘tmay, ketma-ket nasriy kitoblar yaratdi. U 1488-yilda yozgan „Tarixi mulki ajam“ („Ajam shohlar tarixi“) shularning biri edi. Bu asar „Muhokamat ul-lug‘atayn“da „Zubdat ut-tavoxir“ („Tarixlar qaymog‘i“) deb ham ataladi. 1480-yillarning oxiri, 1490-yillarning boshida Navoiyning yaqin do‘stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher (1489), Abdurahmon Jomiy (1492), Pahlavon Muhammad (1493) ketma-ket vafot etdilar. Navoiy ularga bag‘ishlab „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“, „Xamsat ul-mutahayyirin“, „Holoti Pahlavon Muhammad“ asarlarini yozadi. Bu asarlar nasriy bo‘lib, shoirning bu ulug‘ zamondoshlari haqidagi memuar xotiralaridan tashkil topgan edi. 1491-yilda muammo janriga bag‘ishlangan „Risolayi muammo“ (ikkinchi nomi „Mufradot“) risolasini yozi. Navoiy zamonasida muammo janri keng tarqalgan bo‘lsa — da, asosan, fors tilida yozilar edi. Navoiy o‘zbek tilida muammo yozgan ilk o‘zbek shoirlaridan bo‘ldi. „Xazoyin ul-maoniy“ga uning 52 muamosi kiritilgan. Shoirning fors tilidagi muammolarini esa 500 chamalaydilar. Navoiyning 1490-yillardagi eng katta xizmatlaridan biri „Xazoin ul maoniy“ („Ma’nolar xazinasi“)ni tuzish bo‘ldi. 1492–1498-yillarda tartib qilingan 4 qism devondan iborat bu ulkan she’riy kulliyot shoirning turkiy tilda yozilgan deyarli barcha lirik she’rlarini qamrab olgan edi. Shoir 7-8 yoshidan 20 yoshigacha bo‘lgan davrni umrining navbahori hisobladi va shu davr devonini „G‘aroyib us-sig‘ar“ („Yoshlik g‘aroyibotlari“) deb atadi.

1490-yillarning boshidagi og‘ir yo‘qotishlar, ayniqsa, 40 yillik qadrdoni Pahlavon Muhammad bilan ustoz Jomiydan judo bo‘lish Navoiyga qattiq ta’sir etdi. Buning ustiga saroyda Xadichbegim Nizomulmulk bilan mulk va mansab ishtiyoqida yangi-yangi fitnalar to‘qiydi. Shu fitnalar natijalaridan biri pok qalbli barcha kishilarni larzaga solib, mamlakatni halokat yoqasiga keltirib qo‘yadi. Bu-Mo‘min Mirzoning o‘z bobosi farmoni bilan qatl qilinishi edi. 1489-yilda Navoiy Hirotga qaytgach o‘rniga Astrobod hokimi qilib Badiuzzamon tayinlagan edi. Bu orada Balxda Darveshali qo‘zg‘oloni boshlanadi. Husayn Bayqaro Navoiyni olib, Balxga jo‘naydi. Darveshali bilan sulh tuziladi, lekin Hisorda Abusaidning o‘g‘li Sulton Mahmud Husayn Bayqaroga qarshi kurash boshlaydi. Shoh Navoiyni Balxda qoldirib, o‘g‘li Badiuzzamonni olib Hirotga otlanadi. U bilan ham murosaga kelishib, orqaga qaytadi va Balxni Badiuzzamon tasaruffiga beradi. Badiuzzamon o‘g‘li— 13 yoshli Mo‘min Mirzoni Astrobodda qoldirib Balxga keladi. Xadichbegim Nizomulmulk bilan birgalikda Astrobodga Muzaffar Mirzoni hokim qilib tayinlashga erishadilar. Husayn Bayqaro va Badiuzzamon o‘rtasidagi munosabat yomonlashadi. Badiuzzamon Mo‘min Mirzoga Muzaffar Mirzoni shaharga kiritmaslikka buyuruq beradi. Shoh tezda Navoiyni Balxga yuboradi. Navoiy ota va o‘g‘il orasiga tushib, ularni yarasttiradi. Biroq huddi shu paytda Husayn Bayqaroning Badiuzzamonni qo‘lga tushirish va qamoqqa olish haqidagi Balxga, shahar qutloviga yo‘llagan yashirin farmoni ma’lum bo‘lib qoladi. Yarash yana urushga aylanadi.

Navoiy voqeani bunday izga kirib ketganidan qattiq iztirob chekadi va umidsiz orqaga qaytadi. Ota-o‘g‘il urushida Badiuzzamon yengiladi. Mo‘min Mirzoni Muzaffar Mirzo asir oladi. 1499-yilda Marvda Husayn Bayqaroning yana bir o‘g‘li Abulmuhsin otasiga qarshi bosh ko‘taradi. Shoh o‘z qo‘shini bilan Marvga otlanadi. Bu paytlarda Navoiy hajga boorish orzusida edi. Mirxondning xabar berishicha, Abulmuhsin otasi bilan sulh tuzish uchun Alisherning podshoh nomidan vakil bo‘lib kelishini shart qilib qo‘yadi. Navoiyga tez chopar yuboriladi. Chopar shoirga yetib, shohning maktubini topshiradi. Unda shoirning hajni keyinga qoldirib, tezda Marvga yetib kelishi iltimos qilingan edi. Alisher Mashhad ulug‘lari va hamrohlari bilan maslahatlashadi. Ular mamlakatning tinchiligi uchun Alisherning hajga borishidan kechishini so‘raydilar. Alisher belgilangan joyga yetib boradi, ota-o‘g‘illarni yarashtirib, Hirotga qaytadi.

1498-yilda Alisher Navoiy „Majolis un-nafois“ni qayta ko‘zdan kechirib, to‘ldirdi. Shoirlar adadni 459 taga yetkazdi. Shu yili yoshligidan qalbida muhirlanib kelgan „Mantiq ut-tayr“ ga javob yozadi. „Lison ut-tayr“ Navoiy ijodini yakunlovchi asarlardan biridir. Buyuk shoir 1498–1499-yillarda xatlarini to‘plab, „Munshaot“ tuzdi. Unda 88 ta xat jamlangan bo‘lib, ularning aksariyati shoirning shoh va shahzodalarga yo‘llangan. Shoirning 1500-yilning oxirlarida yozib tugatgan „Mahbub ul-qulub“ asari uning eng so‘nggi asari bo‘lib qoldi. Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida vafot etadi. Butun xalq — shohda gadogacha, olimdan cho‘pongacha, shoirdan dehqongacha ulug‘ farzandining o‘limiga qayg‘u va iztirob bilan motam tutadi.

Alisher Navoiy ijodining yuksak cho‘qqisi „Xamsa“ asari (1483–1485)dir, shoir birinchilardan bo‘lib, turkiy tilda to‘liq „Xamsa“ yaratdi va turkiy tilda shunday ko‘lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi. Ushbu to‘plamni Nizomiy Ganjaviyning „Panj Ganj“ („Besh xazina“) asariga havas sifatida yozilganligini o‘quvchilarga anglatmoq maqsadida „Xamsa“ning kirish qismida:

„Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasig‘a panja urmoq.“
deya ta’kid etadi.

„Xamsa“ tarkibiga „Hayrat ul-abror“, „Farhod va Shirin“, „Layli va Majnun“, „Sab’ai sayyor“, „Saddi Iskandariy“ kabi dostonlar kiradi.

„Hayratul-abror“da hamd, munojot, na’t, hayrat boblaridan keyin shoirning Yaratganga, borliqqa, tabiatga, insonga bo‘lgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ma’rifiy, axloqiy va estetik munosabati aks ettirilgan. Podshoh bilan ulusning insonlik nuqtai nazaridan ayirmasiz, farqsizligini, podshohning hunar, axloq, adl, insof, mantiq, taqvo yo‘lida ulusdan o‘ta olmaganini anglatish bilan o‘zining adolatli shoh haqidagi qarashlarini anglatadi.

„Farhod va Shirin“da qahramonlar sevgi sarguzashtlari orqali insonning tarix va kelajak oldidagi vazifasini belgilaydi, insonlik faqat muhabbatda emas, balki o‘sha sharaflı nomning himoyasi orqali ekanini uqdiradi. Sharq tarixidagi Xusrav va Shirin voqeasini badiiy jihatdan qayta ishlab, Farhod orqali o‘zining komil inson haqidagi qarashlarini ifoda

qilgan. Navoiy dostoni orqali Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy an'analari yangilangan bo'lsa, undan keyin bu syujet turk mumtoz adabiyotining o'zak muammolarini hal etishda asosiy o'rin tutdi va bu yo'nalishda Ahmad rizvon, Jaliliy, Harimiy, Bafqiy, Urfi Sheroziy, Lamiy, Nizoriy va boshqa dostonlari yaratildi.

„Layli va Majnun“ dostonida arab ertaklari orqali ma'lum syujet o'zining tugal shaklini topdi, unda ishq falsafasi betakror uslubda ifoda qilindi. Keyinroq yaratilajak Fuzuliy, Andalib, Sayqaliy dostonlari uchun ma'naviy zamin bo'ldi. „Xamsa“ tarkibidagi „Sab' ai sayyor“ va „Saddi Iskandariy“da shohlik bilan bog'liq masalalarni birinchi o'ringa olib chiqdi. Bu dostonlar xamsanavislik an'anasida o'zining ijtimoiy-siyosiy xarakteri va originalligi bilan ajralib turadi. „Xamsa“ga ustoz Abdurahmon Jomiy (1414–1492) yuqori baho berdi.

O'R FA ShI qo'lyozmalar fondida XV–XX asrlarda ko'chirilgan 166 qo'lyozma saqlanadi. Ulardan 84 tasida beshlikning hamma dostonlari berilgan.

„Xamsa“ haqida xorijiy olimlar A.Vamberi, J.Malokolin, F.Richard, L.Vari, Y.Ekman, E.Partele; rus tadqiqotchilari I.Krachkovskiy, V.Bartold, E.Bertels, Konrad, B.Jirmunskiy, A.Yakubovskiy, A.Semyonov; turk olimlari F.Ko'prulu, A.S.Levend, K.Eraslon; ozar olimlari H. Arasli, G. Aliev; o'zbek olimlari Fitrat, I.Sulton, V.Zohidov, A.Qayumov, T.Jalolov, Sodir Erkinov, S.Nazrullaeva, A.Abdug'afurov, M.Hakimov, S.Hasanov v.b. ishlari ma'lum.

O'zMUda „Xamsa“ni tadqiq etish borasida B.Qosimov, B.Akrom, H.Boltaboev, A.Erkinov, D.Farmonova tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singigan bo'lsa-da, maxsus "Lison ut-tayr" dostoni(1499)da, "Nasoyim ul-muhabbat" (1495–1496)da, "Tarixi anbiyo va hukamo"(1485–1488), „Arbain“, „Munojot“ singari asarlarida aks etgan.

"Lison ut-tayr"da borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini, inson, tabiat va hayot haqidagi fikrlarini qushlar tili va sarguzashtlari orqali bayon qilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Navoiy asarlarini diniy va so'fiylik jihatidan o'rganish kengaydi, ular ob'ektiv va ilmiy bahosini olmoqda. „Arbain“, „Munojot“ kabi asarlari chop etildi. Jomiyning „Nafahotul-uns min hazarotil-quds“ tazkirasini tarjima qilib va to'ldirib, so'z yuritilgan 618 ta shayxlar sonini 770 taga yetkazdi.

Navoiy merosining salmoqli qismi nasriy asarlardan iborat. Ular ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy va ilmiy-falsafiy yo'nalishdadir.

Mahbub ul-qulub (1500–1501) Navoiyning so'nggi yirik asari bo'lib, unda ulug' mutafakkir adibning hayoti davomidagi kuzatishlari, to'plagan boy tajribasi o'z yuqori darajasida aksini topgan. Uch qismdan iborat bu asarda „Soriun-nosning af'ol va ahvolining kayfiyati“ (1), axloqiy muammolar (2), „mutafarriqa favoyid va amsol surati“ (3) masalalari ifodalangan.

„Xamsatul-mutahayyirin“ („Besh hayrat“, 1494) asarida ustozlari va do'stlari Abdurahmon Jomiy, uning hayoti lavhalari, tariqati, yozishmalari, asarlari haqida hayratomuz hikoyalar keltiriladi.

„Holoti Sayyid Hasan Ardasher“ (1488–1489), „Holoti Rahlavon Muhammad“ (1493) asarlari manqib-holot yo'nalishida bo'lib, ularda shoirga ustozlik qilgan buyuk shaxslar hayoti, faoliyati yoritilgan.

„Munshaot“ (1498–1499) Navoiyning maktublari to'plami (jami 88 ta xat) bo'lib, ular sog'inchilik xatlari, navro'z tabriklari, ta'ziyanomalar, siyosiy o'g'itlar, sulhnomalar va boshqa yo'nalishlardadir. Ular Husayn Boyqaro, Badiuzzamon va boshqa tarixiy shaxslarga bitilgan.

„Majolisun-nafois“ (1490–1491; 1497–1498) tazkirasi turk tilidagi yozilgan dastlabki tazkira bo'lib, unda shoir sakkiz majlis doirasida 459 shoir va adib haqida ma'lumot bergan. Birinchi va ikkinchi majlisda tazkira tartib berilganda hayot bo'lmagan shoirlar, uchinchi majlisda shoirning zamondoshlari, to'rtinchi majlisda beshinchi majlisda Xuroson, oltinchisida Movaraunnahr, Kichik Osiyo va Eron, yettinchi va sakkizinchi majlislarda temuriylar sulolasiga mansub ijodkor shoh va shahzodalar haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Asar Fahriy Hirotiy (1521–1522), Muhammad Qazviniy (1522–1523), Shoh Ali Abdulali (1598) tomonidan uch marta fors tiliga tarjima qilingan.

Navoiy „Muhokamatul-lug'atayn“ asarini o'z zamonidagi turkiy lahjalar, ziyolilar nutqi, badiiy va ilmiy asarlarning leksik-grammatik xususiyatlarini forsiy til xususitlari bilan qiyoslashga bag'ishladi. Jonli xalq tilida qo'llangan ko'plab so'zlarni asarga kiritib, adabiy tilda qo'llanilishiga sababchi bo'ldi. O'zigacha ishlatilgan so'zlarni yangi ma'no qatlamlarini ochdi. o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning tili grammatikasini Mahmud Koshg'ariydan so'ng ilmiy asosga soldi. o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning tilining badiiy va estetik imkoniyatlari kengayishiga sababchi bo'ldi. Fors va turk tillarida yaratilgan eng yirik va e'tiborli asarlarga murojaat qildi, shoir va olimlarni til istiqloli uchun kurashga chorladi.

Aruz nazariyasiga bag'ishlangan „Mezonul-avzon“ (1492) asarida arab va fors aruzi qoidalarini turkiy tilda aniq va ravon tushuntirdi. Turk yozma va og'zaki she'riyati namunalarining vazn xususiyatlarini o'rgandi. Turkiy aruz tabiatini yoritish bilan birga turk she'riyati murakkab aruz tizimini boyitganini anglatdi. Bahrlar va doiralar haqidagi tasavvurni kengaytirdi. To'qqizta yangi vazn va she'riy shaklni aniqladi. Turklik tarixida ilk bor milliy vazn haqidagi qarashlarni ilgari surdi.

Navoiyning ilmiy-filologik merosini muntazam tadqiq qilish XX asrning 20-yillaridan yo'lga qo'yildi. Bu yo'nalishda Fitrat, Oybek, A.Sa'diy, O.Sharafiddinov, A.Hayitmetov, I.Sulton, H.Qudratullaev kabi adabiyotshunos va A.K.Borovkov, O.Usmonov, A.Rustamov kabi tilshunos olimlarning ishlari e'tiborli.

Tarix va iqtisodga oid asarlari

Navoiyning portreti. Portret Qirg'izistonning Isfana shahridagi Alisher Navoiy o'rta maktabining asosiy zalida uzoq yillar davomida turgan. Portret 2012-yil mahalliy qirg'iz rasmiylarining tazyiqi ostida asosiy zaldan olib tashlangan. Mahalliy rasmiylar maktab nomini almashtirishga harakat qilishmoqda.

„Tarixi muluki Ajam“ („Ajam shohlari tarixi“, 1488) qisqa tarix bo'lib, Eron shohlari xronikasi bayon qilingan „Tarixi Tabariy“, „Shohnoma“ asarlarini mantiqan to'ldiradi, ulardagi faktlarni izchil ilmiy tizimga soladi. Afsonaviy shoh Kayumarsdan sosoniylarning so'nggi vakili Yazdi Shahriyorgacha bo'lgan shohlar tarixini, mifologik talqinini beradi.

„Tarixi anbiyo va hukamo“ („Payg'ambarlar va hakimlar tarixi“, 1485–1498) asarining birinchi bo'limida „Qissasul-anbiyo“lar an'analarini davom ettirib, Odam alayhis-salomdan Nuh, Iso, Muso, Ya'qub, Sulaymon, Yusuf, Dovud kabi payg'ambarlar tarixiga oid qissalar keltiradi. Navoiy Luqmoni hakimga ham anbiyolar qatoridan joy beradi. Asarning „Hukamo zikrida“ deb nomlangan ikkinchi bo'limida insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan donishmand hakimlar Fishog'urs, Jomosp, Buqrot, Suqrot, Aflotun, Arastu, Bolinos, Jolinus, Batlimus, Buzurgmehr haqida ibratli hikoyalar keltiradi, ularning donishmandligi, ilmiy kashfiyotlari siri qisqa satrlarda talqin qilinadi.

„Vaqfiya“ (1481) asarida vaqf yerlari, mulklari, ularning miqdori, ulardan foydalanish, vaqf mulki va mablag'i evaziga quriladigan bino va inshootlar, bu yo'nalishda madrasa va xonaqohlarda o'rnatilgan tartiblar haqida fikr yuritdi. Navoiy o'z ixtiyoridagi mablag'lar hisobiga qurilgan xayriya muassasalari, ilmiy-madaniy binolar va bog'larni sanab o'tdi. Asar Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini o'rganish uchun ham muhim hujjatli manbadir.

Tarix va iqtisodiy yo'nalishdagi asarlari N.Veselovskiy, Yakubovskiy, Ya.G'ulomov, V.Zohidov, B.Ahmedov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Arab va fors tillaridagi asarlari. Alisher Navoiy fors tilida yozgan she'rlari asosida „Devoni Foni“ tuzilgan bo'lib, uning muqaddimasida „Sittai zaruriya“ („Olti zarurat“) va „Fusuli arbaa“ („To'rt fasl“) forsiy qasidalar majmualari berilgan. „Sittai zaruriya“ to'plamidagi qasidalar „Ruhul-quds“ („Muqaddas ruh“), „Aynul-hayot“ („Hayot chashmasi“), „Tuhfatul-afkor“ („Fikrlar tuhfas“), „Qutul-qulub“ („Qalbdar g'izosi“), „Minhojun-najot“ („Qutilish yo'li“), „Nasimul-xuld“ („Jannat nasimi“) kabi nomlar bilan ataladi. Ular Xoqoniy, Dehlaviy, Salmon Sovajiy, Abdurahmon Jomiy asarlari ruhida, ularga falsafiy-mantiqiy javob tarzida yozilgan. „Fusuli arbaa“da Sulton Husayn Boyqaro madhidan so'ng „Bahor“, „Saraton“, „Xazon“ („Kuz“) va „Day“ („Qish“) vasfidan iborat. Muammo janri qoidalariga bag'ishlangan „Mufradot“ (1485) fors tilidagi ilmiy asarida mumtoz she'riyatdagi bu janrni nazariy jihatdan asosladi. Muammo va uni ifodalangan janrlar ruboiy, qit'a, tuyuq, ayrim hollarda g'azal munosabatini anglatdi. Muammolarni yechish usullarini o'rgatish barobarida 121 ta misol keltirdi. Navoiyning arab tilida „Sab'atul-abhur“ („Yetti dengiz“) nomli diniy-tasavvufiy ruhda lug'at xarakteridagi asar

yozgani ma'lum. Biroq bu asar nashr etilib, yetarli darajada o'rganilmagan. Alisher Navoiyning fors tilidagi merosi Fitrat, H.Sulaymon, N.Mallaev, Sh.Shomuhamedov, R.Vohidov, Boltaeva tomonidan o'rganilgan.

Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin oldi. Mustaqil O'zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O'zbekiston Davlat mukofoti, O'zbekiston Respublikasi FA Til va adabiyot instituti, opera va balet akademik teatri, O'zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan ataladi.

Ko'rgali husnungi zoru...

Ko'rgali husnungi zoru muhtalo bo'ldim sanga, Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngil,

Vahki, kun-kundin batarrak muhtalo bo'ldum sanga.

Men qachon dedim: vafo qilg'il manga — zulm aylading,

Sen qachon deding: fido bo'lg'il manga — bo'ldum sanga.

Ey ko'ngil, tarki nasihat ayladim avvora bo'l,

Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,

Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro, To Navoiydek asiru benavo bo'ldum sanga.

Kelmadi

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,

Ko'zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadii.

Lahza-lahza chiqdimu, chekdim yo'lida intizor,

Keldi jon og'zimg'avu ul sho'xi badho' kelmadi.

Ul parivash hajridinkim yig'ladim devanavor,

Kimsa bormukim anga ko'rgannda kulgu kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas yo'qsakim qo'ydi qadam

Yo'lg'akim avval qadam ma'shuqqa o'tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla hurram et ko'ngul uyin,

Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

Xulosa:

Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin oldi. Mustaqil O'zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O'zbekiston Davlat mukofoti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti, opera va balet akademik teatri, O'zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan ataladi.

Alisher Navoiy merosini o'rganish ishlarini yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida yurtimiz va chet ellarda tizimli asosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e'lon qilish, ushbu mavzuda yangi ilmiy, badiiy va ommabop asarlar yaratish, xorijdagi navoiyshunos olim hamda ijodkorlarning asarlarini o'zbek tilida nashr etish choralarini ko'rish Respublika komissiyasining asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.

Shavkat Mirziyoyev 2024-yil noyabrida bo'lib o'tgan majlisda Navoiy viloyatida 2025-yilni "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilishni taklif qilgandi. Majlisda bu yil doirasida "Hazrat Navoiyni anglash — o'zligimizni anglash" mavzusida prezident sovg'asi uchun respublika tanlovi tashkil etilishi aytilgandi.

Yuqorida takidlangan gaplar esa mamlakatimizda millatning buyuk siymosiga bo'lgan hurmatni yaqqol namoyish etadi albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. MAT. 20jildlik.— Toshkent:Fan,2000.[1]
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. [2]
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 20 jildlik. — Toshkent: Fan, 2001.[3]
4. Alisher Navoiy. Xamsat ul- mutahayyirin. Holoti Sayyid Hasan Ardasher Holoti Pahlavon Muhammad. Nazm ul-tavoxir. MAT. 10 jildlik. – Toshkent: Fan, 1999.[4]
5. Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Ахмедов. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985.[5]